

KARIESNI TO'G'RI VA SAMARALI DAVOLASH USULLARI

Erkinov Jamshid

Buxoro Innovatsion Ta'lim va Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya: Bu maqolada kariesni to'g'ri va samarali davolash usullari va turlari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: davolash, konservativ, arralash, zamonaviy.

TISH KARIESINI DAVOLASH: Agar karies dog' bosqichida bo'lsa, tishlarni yetarli darajada fluor va kaltsiy bilan to'yintirish uni bartaraf qilish uchun yetarli hisoblanadi. Agar kasallik sirtki, o'rta yoki chuqur bosqichda bo'lsa, bormashina ishlatmay, ehtimol boshqa chora bo'lmaydi. Kariesni davolash uchun tishning zararlangan qismini arralab tashlash va uning tabiiy shaklini plomba materiallari yordamida tiklash kerak. Chuqur karieslarni davolashda, odatda, stomatologga ikki marta tashrif buyurish kerak bo'ladi — birinchi marta vaqtinchalik plomba, so'ngra esa doimiy plomba qo'yiladi. Agar karies plomba ostida paydo bo'lsa, uni aniqlash uchun rentgenografiya qo'llaniladi. Kariyeslarni davolashning ikkita asosiy usuli mavjud: noinvaziv («arralashsiz») va invaziv (ta'sirlangan to'qimalarni arralab tashlash bilan). Usulni tanlash kasallikning bosqichiga bog'liq.

ARRALASHSIZ KONSERVATIV DAVOLASH: Ushbu davolashda arralash qo'llanilmaydi. Ushbu usul, agar kasallik dastlabki bosqichda bo'lsa, ya'ni emalning rangi o'zgargan bo'lsa yoki bemor organizmining xususiyatlari (masalan, og'riqsizlantiruvchi preparatlarga allergik reaksiya) mavjud hollarda qo'llaniladi. Noinvaziv usulning mohiyati emalning yumshoq karashi va minerallanishini olib tashlashdir. Davolash bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi: tekshirish, milkdan ajratish va zarur materiallarni qo'llash. Jarayonning davomiyligi taxminan bir soatga bo'ladi, bu jihozlarga va stomatolog malakasiga bog'liq. Agar davolanish sifatli amalga oshirilsa, kasallik tishlar to'g'ri parvarish qilinganda qaytalanmaydi. Biroq, bemor yana o'z yomon odatlaridan voz kechmasa, bu yerda shifokorning aybi bo'lmaydi.

TISHNING QATTIQ TO'QIMALARINI ARRALASH BILAN DAVOLANISH Tishning zararlangan qismlariga og'riqsizlantirish bilan apparat yordamida ishlov berish. Davolash bosqichlari kasallikning bosqichiga bog'liq. O'rtacha karieslar quyidagi sxema bo'yicha davolashadi:

- ✓ Og'riqsizlantirish;
- ✓ Mexanik va dori-darmonlar bilan ishlov berish;
- ✓ Himoya qoplamasi o'rnatish;
- ✓ Plombalash materiallari yordamida tishning anatomik shaklini tiklash;
- ✓ Silliqlash va pardoqlash.

Chuqur kariesda qoplama qo'yishdan oldin zararlanish darajasini tekshirish talab qilinadi, ya'ni ta'sirlangan pulpaning yuzaga qanchalik yaqin ekanligini. Bu davolanishdan so'ng og'riq yuzaga kelmasligi uchun amalga oshiriladi. O'rta va chuqur kariesni davolash davomiyligi bir soat, ba'zan ikki soatgacha davom etadi. O'rtacha karieslar, avval aytganimizdek, odatda bir marta tashrif buyurish bilan davolanadi, chuqur karies bo'lganda esa stomatologga ikki marta tashrif buyurishi kerak, og'ir holatlarda — uch yoki undan ko'proq marta. Davolashning

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

samaradorligi foydalaniladigan dorilarning sifatiga, mutaxassisning malakasiga va organizmning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Noto'g'ri oziqlanish va yomon gigiena, shuningdek zaif immunitet bo'lganda kasallik bir muddatdan keyin yana qaytalanishi mumkin.

ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI: Kariesni davolashda zamonaviy yondashuvlar — yangi usullardan biri kimyoviy-mexanik usul hisoblanadi. Bu usul zararlangan tish sohasiga maxsus vositalar qo'yish va keyin tishning zararlangan qismini olib tashlash va plombalashdan iborat. Ushbu usulning afzalliklari — og'riqsiz kechishi va chuqur arralashning hojati yo'qligi. Patologik to'qima shuningdek kuchli havo yoki suv purkash natijasida, maxsus kukunlar qo'llagan holda olib tashlanishi mumkin. Ammo bu usul faqat kariesning dastlabki bosqichlarida samarali bo'ladi. Zararlangan joylar lazer bilan olib tashlanishi ham mumkin. U ta'sirlangan to'qimalarni taniydi va bug'lantirib yuboradi. Bunday zamonaviy usullar albatta ko'p noqulaylik tug'dirmaydi va og'riqsiz kechadi, ammo bunday muolajalar bemorga ancha qimmatga tushishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.A. Tashpulatova.. *Stomatologik kasalliklar*. «Fan va texnologiya» 2016.
2. Borovskiy Ye. V. «Terapevticheskaya stomatologiya». - Moskva, 2008